

ALEXA CHUNG: HAYOTI, IJODI VA O‘Z BRENDIGA ELTGAN YO‘L



Xolboyeva Ra'no Anvarovna

Kamoliddin Behzod nomidagi
Milliy rassomlik va dizayn instituti,
mustaqil izlanuvchisi

xolboyevvarano89@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20019765>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alexa Chungning hayot yo‘li, ijodiy faoliyati, o‘z moda brendini yaratish jarayoni jamlanib tahlil qilingan. Maqolada Alexa Chungning modellik, media, moda sohalaridagi faoliyati o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganilib, shaxsiy brend shakllanish bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, vizual, kommunikativ, madaniy va intellektual kapital tushunchalari asosida uning muvoffaqiyatga erishgan omillari o‘z izohini topadi. Maqolada Alexa Chung brendining yaratilishi va rivojlanish jarayoni hamda uchragan muammolar tahlil qilinadi. Maqola qisman bo‘lsada zamonaviy moda industriyasida shaxsiy brend yaratishning muhim jihatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Alexa Chung, moda industriyasi, shaxsiy brend, stil ikonasi, “it-girl” fenomeni, modellik faoliyati, media faoliyati, teleboshlovchilik, ijodiy kapital, madaniy kapital, vizual identitet, moda brendi, “effortless chic” uslubi, zamonaviy moda, brend yaratish jarayoni.

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются жизненный путь, творческая деятельность и процесс создания собственного модного бренда Алексы Чунг. В исследовании ее деятельность в сферах модели, медиа и моды рассматривается во взаимосвязи, а также раскрываются этапы формирования личного бренда. Кроме того, на основе понятий визуального, коммуникативного, культурного и интеллектуального капитала объясняются факторы ее успеха. В статье также анализируются процесс создания и развития бренда Alexa Chung, а также возникшие трудности. Результаты исследования раскрывают ключевые аспекты формирования личного бренда в современной индустрии моды.

Ключевые слова: Alexa Chung, индустрия моды, личный бренд, икона стиля, феномен «it-girl», модельная карьера, медийная деятельность, телеведущая, креативный капитал, культурный капитал, визуальная идентичность, модный бренд, стиль «effortless chic», современная мода, процесс создания бренда.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of Alexa Chung’s life path, creative activity and the process of building her own fashion brand. The study examines the interconnection between her work in modeling, media, fashion highlighting the stages of personal brand development. It also explains the factors behind her success through the concepts of visual, communicative, cultural, intellectual capital. Furthermore, the article analyzes the creation and development of the Alexa Chung brand, along with the challenges encountered. The findings reveal key aspects of personal brand building in the contemporary fashion industry.

Keywords: Alexa Chung, fashion industry, personal brand, style icon, “it-girl” phenomenon, modeling career, media activity, TV presenting, creative capital, cultural capital,

vizual indentiy, fashion brend, "effortless chic" style, contemporary fashion, brand creation process.

Marketingni ilmiy nuqtai nazardan iste'molchi fe'li, brend menejmenti doirasida tahlil qilish bugungi kunda aktuval masala sanaladi. Marketingni moda industriyasiga ta'siri zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, marketing sotuv jarayoni vositasi emas, iste'molchi ongini shakllantiruvchi murakkab kommunikativ tizim sifatida namoyon bo'ladi. Moda industriyasida marketing brendning o'zgachaligi, ramziy qiymati, ijtimoiy tabaqalashuv jarayonini muvozanatda ushlabda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi yondashuvga asoslansak moda olami ijodiy ishlari ishlab chiqarish qiymatidan ko'ra ramziy va his-tuyg'u orqali iste'molchiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy identifikatsiya nazariyasini ilgari surilsa, insonlar kiyim orqali o'z ijtimoiy maqomini va guruhga mansubligini ifoda etadi.

Luks brendlar marketingdan asosan nodirlik va noyoblikni yaratish vositasi sifatida foydalanadi. Ularning maqsadi, qarashlari asosan sun'iy taqchilik, yuqori narx siyosati va ommaviy moslashuvchanlikka asoslanadi. Bu jarayon moda industriyasida Veblen effekti bilan izohlanadi. Veblen effektida mahsulot narxi oshgani sari uning ijtimoiy jozibadorligi ham oshadi. Luks brendlar reklamada ommaviylikdan ko'ra, brend merosi, qo'l mehnati, hunarmandchilik va estetik mukammallikka urg'u beradi.

Luks brendlardan farqli ravishda mahalliy brendlar marketingga jiddiy bog'liq bo'lib, ular ko'proq raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar kontent marketing orqali o'z auditoriyasini shakllantiradi. Mahalliy brendlar uchun marketing – bu nafaqat savdo vositasi, balki ishonch va tan olishni yaratish mexanizmi sanaladi. Ular ko'pincha Differensiallash strategiyasi orqali milliylik, ekologiklik yoki individual dizayn kabi omillarni ilgari suradi.

Moda olamida raqamli marketing muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlarda mikro-inflyuenserlar orqali brend imidjini shakllantirish, iste'molchilar bilan interaktiv aloqa o'rnatish va tezkor trendlarga moslashish mahalliy brendlar uchun strategik ustunlik beradi. Marketing tushunchasiga yosh dizaynerlar yuzaki nazar bilan qaramasligi, aksincha, marketing moda industriyasida qiymat yaratish, iste'molchi ongini boshqarish va brendning qay pozitsiyaga ega bo'lishini aniqlovchi muhim vositadir. Luks brendlar marketingni ekskluzivlik va statusni yaratish uchun ishlatadi, mahalliy brendlar uni bozorga kirish va raqobatda ustunlikka erishish uchun faol qo'llaydi.

Bugungi kun moda industriyasida o'zigacha uslub va shaxsiy brend tushunchalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijod olamidagi shaxslarning o'z imijini tijoriy brendga aylantirish jarayoni ilmiy va amaliy jihatdan qiziqarli tadqiqot obyektiga aylangan. Muxtasar aytganda Alexa Chung faoliyati moda, media, biznes kesishgan nuqtada shakllangan muvofaqiyatli model sifatida e'tiborga arziydi.

Mazkur maqolaning maqsadi – bugungi kunda yakka shaxs sifatida ham mahalliy brendlar faoliyat yurita olishi, shuhrat cho'qqisiga erisha olishi, marketing norma va qoidalariga rioya etilmaganda brendlar barqaror rivojlana olmasdan qulash holatlari ham mavjudligini Alexa Chungning hayot yo'li, ijodiy faoliyati va o'z moda brendini yaratish bosqichlarini tizimli ravishda tahlil qilish, muvaffaqiyat omillarini aniqlash orqali aniqlashdan iborat bo'ladi.

Angliyaning Winchester shahrida 1983-yil 5-noyabrda xitoylik ota va ingliz onadan Alexa Chung dunyoga keladi. Ism sharifidagi o'zgachalik aynan shundan namoyon bo'lgan. Bu o'zgachalik asta sekinlik bilan uning uslubida ham aks eta boshlagani bejizga emas. Bu uyg'unlik Alexani san'at va moda olamiga kirishiga ham turtki bo'ldi. Genetik o'ziga xoslik unda namoyon

bo‘lib ulgurganda u King’s College (London)da o‘qiyotgan edi. Genetik o‘ziga xoslik uni moda olamiga kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Bu vaqtda u 16 yoshga yetgan o‘spirin bo‘lgan. Natijada u King’s Collegeni yakunlay olmagan. Bu holat ijodiy industriyada amaliy tajribaning nazariy bilimdan ustun kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

16 yoshida moda industriyasiga qadam qo‘yar ekan u “Fendi”, “DKNY”, “Pepe Jeans” brendlarining yuzi bo‘lishga ulgurgan. Moda olamida butun umr faoliyat olib borish imkonsiz ekanligini ongli ravishda anglagan holda o‘z qarashlarini teleboshlovchilikka qaratishga qaror qildi. U Popworld orqali mashhurlikka erishdi. Uning noodatiy ko‘rinishi tabiiy go‘zallik, nozik tana tuzilishi va “effortless chic” uslubi – uni boshqa modellardan ajratib turardi. Mazkur bosqichda u nafaqat tashqi ko‘rinish, balki stil va vizual moslashuvchanlik elementlarini ham o‘zlashtirdi. Biroq modellik faoliyatining cheklangan ijodiy imkoniyatlari uni yangi yo‘nalishlar izlashga undadi.

Alexa Chung teleboshlovchi sifatida minglab ayollarning go‘zallik timsoliga aylanib borayotganini ongli ravishda tushungan hamda vintage va zamonaviy kiyimlarni uyg‘un holda targ‘ib qila boshlagan. Bunda u oddiylik va nafislikni birlashtirib oddiy libosda ham ayol nafis bo‘la olishini targ‘ib qilgan. Bu uslub uning kuzatuvchilari orasida ommalashib Alexa Chung individual uslub “Casual chic” uslubi orqali moda ikonasi aylandi. Bu orqali u ko‘plab mukofotlarga sazovor bo‘ldi. Jumladan British Fashion Awards marosimida “Style Icon” unvonini bir necha bor qo‘lga kiritdi.

Alexa Chung 2013-yilda ijodkor sifatida “IT” (ingliz: bu) nomli kitobini nashrdan chiqardi. Kitob asosan uning hayoti, ilhom manbalari va moda haqidagi qarashlarini aks ettirgan. Uning ijodi moda, yozuvchilik va vizual san’atni o‘zida uyg‘unlashtiradi. “IT” oddiy avtobiografiya emas. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Shaxsiy hikoyalar (Alexa o‘z bolaligi, modellik faoliyati va mashhurlikka erishish yo‘lini ochiq bayon qiladi);
2. Moda va stil haqidagi fikrlar (U o‘z uslubi qanday shakllanganini, nimadan ilhom olishini tushuntiradi);
3. Illustratsiyalar va suratlar (shaxsiy fotosuratlar, chizmalar, ilhom beruvchi kollajlar);
4. Hazil va samimiylilik (kitob jiddiy emas, balki yengil, kulgili va real hayotga yaqin uslubda yozilgan).

Kitob yaratish bilan cheklanmay Alexa Chung 2017-yil o‘zining shaxsiy moda brendi – “Alexa Chung” ni yo‘lga qo‘ydi. Brend Britanacha klassik uslub, zamonaviy dizayn, qulaylik va nafislik uyg‘unligi bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Brend tezlikda xalqaro e‘tiborni qozondi va ko‘plab mashhur do‘konlarda sotila boshlandi. Oilasi va kelib chiqishidagi o‘zgachalik, ko‘p farzandli oilada ulg‘ayganligi (oilada 4 farzand), otasining xitoy millatiga mansubligi va muhandislik sohasida ishlagani, onasining inliz ekanligi va uy bekasi sifatida farzandlarni tarbiyalaganligi Alexani turli madaniyatlarning uyg‘unligini his etib ulg‘ayishiga turtki bo‘ldi. Bu esa keyinchalik uning moda didida ham aks etdi. Sharqona oddiylik, g‘arbonsa nafislik uyg‘unlashib Alexa o‘z brendini yaratishiga sabab bo‘ladi. Keyinchalik u It’s On with Alexa Chung kabi loyihalarda qatnashdi, xalqaro auditoriyani zabt etdi. Bu bosqich Alexa uchun muhim burilish bo‘ldi: u endi faqat model emas, balki fikr bildiruvchi shaxsga aylandi. Uning media uslubi – samimiylilik, tabiiylilik va norasmiy yondashuv – zamonaviy auditoriya talablariga mos kelib, uning shaxsiy brendini mustahkamladi. Bu bosqichda Alexa Chung modeldan ko‘ra ko‘proq media shaxs sifatida shakllandi.

Alexa Chung o‘z muvoffaqiyatiga Individuallik, moslashuvchanlik, mehnatsevarlik evaziga erishdi. Natija shuni ko‘rsatdiki u shaxsiy brendi “Alexa Chung” qurilishiga erishdi. Alexa

Chungning stil ikonasi aylanishi uning madaniy kapitalining ortishi bilan bog'liq. U o'zining individual uslubi orqali global moda trendlariga ta'sir ko'rsatdi. Uning yutuqlari British Fashion Awards doirasidagi mukofotlar bilan o'z tasdig'ini topdi. Bu omil uning moda sanoatidagi legitimligini mustahkamladi. Mazkur bosqichda Alexa Chung shaxsiy imijini ijtimoiy kapitalga aylantirishga erishdi.

Ijtimoiy kapital va intellektual kapitallarning uyg'unligi uning shaxsiy brendining yanada chuqurroq mazmun kasb etishiga olib keldi. O'zi yozgan kitobi orqali u moda, hayot tarzi, shaxsiy tajribasini reflektiv tarzda namoyon qilgan bo'lsa, modellik faoliyati uning vizual emas, balki konseptual fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishini ko'rsatadi.

Alexa Chungning brend yaratishgacha bosib o'tgan yo'lini tahlil qilinsa bir necha bosqichni qamrab olsa bo'ladi:

1. Vizual kapital (modellik faoliyati);
2. Kommunikativ kapital (media);
3. Madaniy kapital (stil ikonasi);
4. Intellektual kapital (ijodiy faoliyat).

Brendning konsepsiyasi Alexa Chungning shaxsiy estetik qarashlariga asoslangan bo'lib, bu autentiklik omilini ta'minladi. Brend qisqa muddatda mashhurlikka erishgan bo'lsada, 2022-yilda uning faoliyati to'xtatildi. Bu holat moda biznesining yuqori darajadagi raqobat va iqtisodiy barqarorlikka bog'liqligini ko'rsatadi. Mahalliy brendlar dunyo brendlari kabi mashxurlikka erishibgina qolmay, marketing va barqaror faoliyat qoidalarini ham bir necha o'n yilliklar uchun qat'iy ko'rib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Alexa Chang tajribasi muvaffaqiyatsizlikka erishgan brend sifatida talqin qilinmasligi, aslida brend uzoq vaqt va stabil faoliyat olib borishi uchun marketingning o'rni qanchalik muhimligini yosh o'z uslubiga erishib kelayotgan mutaxassislar anglashi uchun misol tariqasida keltirilgan.

Bu bosqich murakkab sanalib bugungi kundagi luks brendlarning bari shu bosqichlardan o'tgan. Yangi brend yaratilishi u bozor mexanizmini anglashi, risklarni boshqarishi, statistik qarorlar qabul qilishga tayyor bo'lishi kerak.

Xulosa o'rnida Alexa Chungning o'z brendiga kelish yo'li ko'p bosqichli va kompleks jarayon bo'lib, unda turli kapital turlari – vizual, kommunikativ, madaniy va intellektual resurslar o'zaro integratsiyalashgan. Uning faoliyati misolida maxalliy brend egalari shuni anglashi kerakki, zamonaviy moda industriyasida muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat iste'dod, strategik fikrlash, moslashuvchanlik, shaxsiy autentiklik muhim ahamiyat kasb etadi, balki bularning barini marketing yo'li bilan bir maromda ushlab turish ham muhim ahamiyat kasb etadi. shu boisdan Alexa Chung tajribasi shaxsiy brend yaratish va uni rivojlantirish bo'yicha samarali namuna sifatida ko'rsatilishi ilmiy va amaliy jihatdan yosh usub egalari katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chung A. *It*. — London: Penguin Books, 2013. — 256 b.
2. The Guardian. Alexa Chung interviews and features. — URL: <https://www.theguardian.com> (murojaat sanasi: 15.04.2026).
3. The Independent. Fashion and culture articles on Alexa Chung. — URL: <https://www.independent.co.uk> (murojaat sanasi: 15.04.2026).
4. Vogue. Style and fashion analysis: Alexa Chung style evolution. — URL: <https://www.vogue.com> (murojaat sanasi: 15.04.2026).
5. British Fashion Awards. Official records and winners archive. — URL: <https://www.britishfashionawards.com> (murojaat sanasi: 15.04.2026).

6. Business of Fashion. Alexa Chung brand and fashion industry analysis. — URL: <https://www.businessoffashion.com> (murojaat sanasi: 15.04.2026).
7. Marks & Spencer. Collaboration collections with Alexa Chung. — URL: <https://www.marksandspencer.com> (murojaat sanasi: 15.04.2026).
8. AG Jeans. Brand collaboration with Alexa Chung. — URL: <https://www.agjeans.com> (murojaat sanasi: 15.04.2026).
9. Alexa Chung Fashion Brand Official Archive. — URL: <https://www.alexachung.com> (murojaat sanasi: 15.04.2026).